



# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlar

yanvar - sentyabr 2019

Dastlabki ma'lumotlarga ko'rta 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiylajmi 7013,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 6704,6 mlrd.so'mni (102,6 foiz), o'rmon xo'jaligida 219,0 mlrd.so'mni, (102,6 foiz), baliq xo'jaligida 90,2 mlrd.so'mni (107,8 foiz) tashkil qildi.

**7013,8**

**Navoiy viloyati bo'yicha Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**6704,6**

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**

02

**219,0**


**O'rmon xo'jaligi**

03

**90,2**


**Baliq xo'jaligi**

## Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd. so'm)



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Zarafshon shahri (107,3 foiz), Uchquduq (106,1 foiz), Konimex (104,5 foiz), Tomdi (104,3 foiz), Nurota (104,0 foiz), Xatirchi (103,7 foiz), Karmana (102,9 foiz) hamda Navbahor (101,5 foiz) tumanlarida kuzatildi, Qiziltepa (100,1 foiz), Navoiy shahrida esa (99,5 foiz) aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## **Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida jamiga nisbatan ulushining taqsimlanishi**




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiyligi hajmida Xatirchi tumanining ulushi (31,7 foizni) tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, xuddi shunday, Qiziltepa tumani (19,3 foiz), Navbahor tumani (16,3 foiz), Karmana tumani (13,6 foiz), Nurota tumani (8,2 foiz), Konimex tumani (4,7 foiz), Tomdi tumani (3,0 foiz), Uchquduq tumani (2,2 foiz), ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Navoiy va Zarafshon shaharlarida (0,7 va 0,3 foiz) qayd etildi.

### **Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 98,6 foizni, chorvachilik mahsulotlari 105,2 foizni tashkil qildi.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 82,8 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,2 foizi -fermer xo'jaliklariga, 3,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

### Dehqonchilik

2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2161,7 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 32,4 fozni tashkil qildi.



**Hosilni yig'ib olish.** 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 207,4 ming tonna (102,5 foiz) don, 65,5 ming tonna (102,0 foiz) kartoshka, 194,6 ming tonna (101,6 foiz) sabzavotlar, 50,4 ming tonna (103,5 foiz) poliz, 75,7 ming tonna (105,0 foiz) mevalar, 63,2 ming tonna (105,5 foiz) uzum yig'ib olindi.


**Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini  
hududlar kesimida taqsimlanishi**



**Navoiy viloyati hududlari  
bo'yicha **donli ekinlar**  
yetishtirish hajmi, tonna**

**Navoiy viloyati**

**207 403**






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **kartoshka** yetishtirish hajmi, tonna

Navoiy viloyati

65 503






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **sabzavotlar** yetishtirish hajmi, tonna

Navoiy viloyati


194 621





## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna

Navoiy viloyati 50 446






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **mevalar** yetishtirish hajmi, tonna

Navoiy viloyati


75 703






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **uzum** yetishtirish hajmi, tonna

Navoiy viloyati **63 215**



## Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi % da




## Chorvachilik



2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4511,1 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 67,6 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 119,2 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar - sentyabr oyiga nisbatan 3,7 foizga ko'p), 339,3 ming tonna sut (3,7 foizga ko'p), 263,9 mln.dona tuxum (5,8 foizga ko'p), 3,6 ming tonna jun (4,3 foizga ko'p), 262,5 ming dona qorako'l teri (5,8 foizga ko'p), 0,9 ming tonna asal (17,3 foizga ko'p) 1,0 ming tonna pilla (21,0 foizga ko'p) hamda 7,1 ming tonna baliq (104,4 foiz) ni tashkil etdi.

## Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi % da



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiyligi hajmidan 92,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,6 foizi, tuxumning 74,1 foizi, qorako'l terining 80,1 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.


Ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini  
hududlar kesimida taqsimlanishi



**Navoiy viloyati hududlari  
bo'yicha go'sht yetishtirish  
hajmi (ming tonna)**


**Navoiy viloyati**

**119,2**






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha sut yetishtirish hajmi(ming tonna)





## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha tuxum yetishtirish hajmi (mln. dona.)

Navoiy viloyati 363,8






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha jun yetishtirish hajmi (tonna)


Navoiy viloyati


3 637






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha qorako'l teri yetishtirish hajmi (ming dona)






**Navoiy viloyati  
hududlari bo'yicha  
baliq yetishtirish hajmi  
(tonna)**





## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **asal** yetishtirish hajmi (tonna)

Navoiy viloyati 878,4






## Navoiy viloyati hududlari bo'yicha **pilla** yetishtirish hajmi (tonna)

Navoiy viloyati

969,8




## **Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni**


2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiyligi bosh soni -469,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar -201,1 ming boshga, qo'y va echkilar-2194,3 ming boshga, otlar -19,7 ming boshga, parrandalar -2761,9 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 14,0 ming boshga (3,1 foizga), shu jumladan sigirlar 5,4 ming boshga (2,8 foizga), qo'y va echkilar 68,1 ming boshga (3,2 foizga), otlar 348 boshga (1,8 foizga ), parrandalar 512,2 ming boshga (22,8 foizga) ko'paydi.


### **Yirik shoxli qoramol (ming bosh)**




## shu jumladan: sigirlar (ming bosh)




# Qo'y va echkilar (ming bosh)




# Otlar(bosh)



# Parrandalar(ming bosh)



## Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



2019 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,5 foizi fermer xojaliklari hissasiga, 90,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 2,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 23,7 foizi fermer xojaliklariga, 64,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 12,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligini sonidan 33,7 foizi fermer xojaliklariga, 60,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 5,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, xuddi shuningdek parrandalar umumiyligini sonidan 9,4 foizi fermer xojaliklariga, 70,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 20,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

### Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

0 371 230-84-43

0 371 230-84-44

0 436 223-23-40